

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

“COVID-19 O’TKAZGAN DISSIRKULYATOR ENSEFALOPATIYA(DE) BILAN OG’RIGAN BEMORLARDA GIPERKOAGULYATSION SINDROMNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI”

Nazarov Zufar Shaymurot o’g’li

Toshkent tibbiyot akademiyasi Nevrologiya va tibbiy
psixologiya kafedrası III-kurs magistri

Kadirova Aziza Shavkatovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi Nevrologiya va
tibbiy psixologiya kafedrası tayanch doktorant

Rahmatullayeva G. K.

Ilmiy rahbar: DSc, dotsent

Tadqiqot maqsadi: Covid-19 o’tkazgan bosh miyada qon aylanishing surunkali buzilishining I va II darajasidagi bemorning qondagi giperkoagulyatsion sindromni tahlil qilish.

Tadqiqot material va metodlari: Covid-19 o’tkazgan bosh miyada qon aylanishing surunkali buzilishining I va II darajasi bo’lgan n=42 (10 ta erkak, 32 ta ayol) nafar bemorning biokimyoviy qon tahlili o’rganib chiqildi. O’rganilgan bemorlarning chegara yoshi 34-86 yoshni tashkil qildi (o’rtacha yosh ko’rsatkichi: 60 ± 2 yosh). Barcha bemorlarda shikoyatlar, kasallik va hayot tarixi, somatik va nevrologik status chuqur o’rganildi. D-dimer va ferritinning miqdor ko’rsatkichlarini tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari: 42 nafar bemordan 10 nafar erkak bemorlarning qonidagi D-dimerning (norma - 0,00-0,55 mg FEU/ml) o’rtacha ko’rsatkichi 1.82 ± 1.01 mg FEU/ml, ferritin esa (norma- erk: 22-346 ng/ml) o’rtacha ko’rsatkichi 382.6 ± 90.7 ng/ml, 32 nafar ayol bemorlarning qonida D-dimerning (norma- 0,00-0,55 mg FEU/ml) o’rtacha ko’rsatkichi 1.045 ± 0.62 mg FEU/ml, ferritinning (norma-homilador bo’lmagan ayol: 13-332 ng/ml) o’rtacha ko’rsatkichi 112.1 ± 70.7 ng/ml tashkil etdi. S-reaktiv oqsilning (norma- 0-6 mg/l) o’rtacha ko’rsatkichi erkaklarda 19 mg/l, ayollarda (norma- 0-6 mg/l) o’rtacha ko’rsatkichi 18.9 ± 5.14 mg/l tashkil etdi. S-reaktiv oqsilning umumiy o’rtacha ko’rsatkichlari ikkala jinsda ham



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

normadan yuqoriligi va umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari yaqin bo'lgani holda, Erkaklarda D-dimer qondagi umumiy o'rtacha ko'rsatkichi normaga nisbatan 3.3 marta, ayollarga nisbatan 1.75 marta ko'pligi aniqlandi. Ferritinning qondagi umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari ham erkak bemorlarda ayol bemorlardagi miqdor ko'rsatkichlariga nisbatan 3.4 barobarga yuqori chiqqanligi aniqlandi.

Xulosa:

Covid-19 o'tkazgan bosh miyada qon aylanishing surunkali buzilishi bilan og'rigan erkaklarda ayollarga nisbatan giperkoagulyatsion sindrom rivojlanishi yaqqolroq ekanligi aniqlandi.



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E- CONFERENCE
SERIES